

SURXONDARYO VILOYATIDAGI BA'ZI TOPONIMLAR VA ULARNING TAHLILI

Jumayev Mustafo Erkin o'g'li

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi.

mustafojumayev95@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14589208>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi ba'zi joy nomlarining tahlili tarixiy va lingvistik jihatdan yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Besherkak, Afg'onguzar, "8-mart", Bo'yrachi, Pasurxi, Bog'ibolo, Ko'hitang, Gaza.

SOME TOPONAMES IN SURKHANDARYA REGION AND THEIR ANALYSIS

Abstract. This article attempts to shed light on the analysis of some toponyms in Surkhandarya region from a historical and linguistic perspective.

Keywords: Besherkak, Afgonguzar, "March 8", Boyrachi, Pasurkhi, Bogibolo, Kohitang, Gaza.

НЕКОТОРЫЕ ИМЕНА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация В данной статье анализ некоторых топонимов Сурхандарьинской области пытается быть объяснен с историко-лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: Бешеркак, Афганузар, «8 марта», Бойрачи, Пасурхи, Богиболо, Кохитанг, Газа.

Besherkak - Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan qishloq. Toponim shu hududda yashagan beshta odamning nomidan olingan. Uning paydo bo'lish sababi esa quyidagicha. Sadridin Ayniy Buxoro hukmdori Rahimxon buyrug'i bilan karminalik qozi Zuxayr o'g'li qozi Muhammad Vafo (Shuhrat) tomonidan o'z ko'zi bilan ko'rib yozilgan «Tuhfai xoniy» nomli kitobidan olingan xulosasi asosida quyidagilarni bayon etadi: Mang'it sulolasining boshlig'i, Buxoro hukmdori Rahimxon o'zining Ko'histonga qilgan ikkinchi yurishida, ya'ni hijriy 1170 (milodiy 1756/57) yilda Sherobod qal'asi yaqinidagi Ko'histon qal'asi (hozirgi Kallamozor)da hisorliklar va Ko'histonning boshqa ozod xalqlari bilan to'qnashadi. Bu jangda Rahimxonning qo'li baland keladi, asir tushgan erkaklarni so'yib, boshlaridan kalla minora yasaydi, xotin-qizlarni esa o'z sipohilari (askarlari)ga taqsimlab beradi.¹

Shoniyoz Safarovning ma'lumotiga ko'ra, Sherobod yaqinidagi quyi Laylagan (hozirgi Kallamozor va Ashurxilvat) elbegi urug'ining yurti bo'lgan davrlarda uning shimoliy va sharqiy tomonidagi keng adirlar, qirlar elbegilarning chorvasi uchun yaylov hisoblangan.

Rivoyatga ko'ra, fojia sodir bo'lgan vaqtlarda elbegilarning besh suruv qo'yi shu yaylovlarda bo'lgan.

¹ Ayniy Sadridin. Asarlar, 4-jild, Toshkent, 1965 yil, 95-bet.

Qal'a atrofi aholisi qirib tashlanganda yaylovdagi besh cho'pon mollari bilan omon qolgan. Shu tufayli bu yaylov keyinchalik ularning sonidan kelib chiqib, *Besherkak* deb atalgan.²

Afg'onguzar – Surxondaryo viloyatining Denov, Jarqo'rg'on, Termiz va Sherobod tumanlarida uchraydigan qishloq. Qadimdan mazkur nomlar bilan ataluvchi joylarda savdo-sotiq bilan shug'ullangan afg'onlar yashagan.

“8-mart” - bu qishloq Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan. 1917-yilgi oktyabr to'ntarishidan oldin u qishloq o'rnini to'qay va mayda ko'llar qoplab yotargan. U yerda har xil yovoyi hayvonlar ko'p bo'lgan. Keyinchalik bu yerlar asta-sekin o'zlashtirilib, yangi erlar ochildi, yangi uylar qurildi va odamlar yashay boshladilar. Qishloqda avval juda ko'p ko'l bo'lganligi sababli «Ko'l qishlog'i» deb ham atalib kelgan. 2-jahon urushi yillarida qishloq xo'jalik ishlarini boshqarish xotin-qizlar zimmasiga tushganligi, hamma ishlarni xotin-qizlar bajarganligi uchun «Ko'l» qishlog'iga 1946 yili Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami «8-mart qishlog'i» deb nom berilgan.

Bo'yрачи – Surxondaryo viloyatidagi Sherobod, Jarqo'rg'on, Denov tumanlarida uchraydigan shu nomdagi qishloq. Bo'ya to'quvchilar nomi bilan bog'liq. Bo'ya bu pishgan qamish po'stini tozalab to'qiladigan solinchiq (to'shama). Uy-joylarda namat (kigiz), gilam, palos tagidan to'shaladi. Bo'ya paloslarni tuproq va zaxdan saqlagan; imorat tomini yopishda vassa ustidan qo'yilgan, to'yhashamlarda, turli marosimlarda foydalanilgan, mevalarni yoyib quritishda, quritilgan mevalarni qishda saqlashda Bo'yрани choklab, qop o'rnida ishlatganlar.

“Bo'yrapo'sh” degan qishloqlar ham shu kasb nomi bilan bog'liq.

Pasurxi - Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan qishloq. 2009-yildan shaharcha maqomi berilgan. Pasurxi toponimi etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak “past” + “surxi” so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan. “Past” bu – pastki, quyi ma'nosini, “surxi” esa fors-tojik tilida qizg'ish, qizil ma'nosini berib, shu hududdagi tepalikka atab qo'yilgan, yani “quyi qizil tepalik” ma'nosida. Ba'zilar esa “Qizil do'ngning orqa tomoni” deb tushunishadi.

Bog'ibolo - Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan qishloq. Bog'ibolo ikki so'z: “bog” + “balo” so'zlari qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, bog' bu – bog', bolo esa tojik tilida yuqori degan ma'noni bildiradi. Demak, “Bog'ibolo” bu – “yuqori bog” degani.

Boshqa bog'larga nisbatan yoki aholi markazidan yuqorida joylashgan (yoki atrofida tashkil bo'lgan) bog'. Bog'i-boloni janubiy-g'arbida “Qo'rg'oni bolo qabriston”i bor. Sharqdan “Xoja Surx Push” (qizil Ayzon) qabristoni bilan tutashgan.

Gaza – Surxondaryo viloyati Boysun tumanining sharqida joylashgan qishloq. Gaza deb odatda tog' etaklari va notekis adirlarda qirsimon cho'ziq balandliklarning oshib o'tadigan yo'l bo'lgan qismi. Ochgaza, Oqgaza, To'qgaza, Qoragaza kabi turlari bor. Qishloq joylashish o'rniga ko'ra nomlangan. Gaza-Yuqori Gaza va Quyi Gaza tarzida ikkiga bo'lingan.

Ko'hitang – Surxondaryo viloyatinnig g'arbidagi shimolda Boysuntog' va janubda Amudaryoga qadar cho'zilgan yirik tog' tizmasidir.

² Umarov I. va boshqalar. Surxon vohasida..., 265-bet.

Ko‘hitang so‘zi ko‘h (fors-tojikcha—«tog‘» , va tang (fors-tojikcha—tor, siqiq) so‘zlaridan olinib, «eni qisqa, tor tog‘» ma'nosini bildiradi. Eng yuqori nuqtasi Ayribobo cho‘qqisi sanaladi. U dengiz sathidan 3137 metr balandlikda joylashgan.

Xulosa qilib aytganda Surxon vohasida geografik o‘rni, milliy kelib chiqishi yoki kasbi va ijtimoiy holatiga qarab qo‘yilgan nomlar ko‘ochilikni tashkil etadi.

REFERENCES

1. Ayniy Sadridin. Asarlar, 4-jild, Toshkent, 1965 yil,
2. Umarov I. va boshqalar. Surxon vohasida..., 2014
3. Tursunov S. “Surxondaryo viloyati toponimlari”. T. 2008-y
4. S.N.Tursunov, Q.Rashidov. “Boysun”. Boysun. 2011-y.
5. S. Qorayev. “Toponomika”. Toshkent – 2006-y.
6. Erkin o‘g‘li, J. M. (2023). TOPONOMIKANING ASOSIY BO‘LIMLARI VA ULARNING TARIX UCHUN AHAMIYATI. Лучшие интеллектуальные исследования, 9(2), 121-125.
7. Jumayev, M. (2023). TARIXIY NOMLARNING MANBALARI VA TA’LIQNING ILMIY ASOSLARI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (10), 568-576.
8. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI BOYSUN TUMANI PANJOB QISHLOG‘I AHOLISINING NOMODDIY MADANIYATIDAN. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 78-81.
9. Rahmonov, M. (2024). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMI AHOLISIORASIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATI RIVOJLANISHI. Modern Science and Research, 3(7).
10. Xabibullo o‘g‘li, M. R. (2024). THE FAMOUS CHOPOGAN OF TAKCHI RESIDENTS OF ALACHOPON. *Journal of Learning on History and Social Sciences*, 1(5), 42-44.